

Farg'ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021-yil yanvar-oktabr)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 21734,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 107,9 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (93,6%)ni tashkil etdi.



B– Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* %da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi oshganligining asosiy omillari, ishlab chiqaradigan sanoatda 7,9 %ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash, havoni konditsiyalash 15,8 %ga o'sishga erishildi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati bo'lib, - 38,9%ga, konalizatsiya tizimi va chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlarda 29,6%ga pasayishi kuzatildi.


*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami ishlab chiqarish hajmi va FHI, %da




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 110,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 %ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat



2021-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining 20334,0 mlrd. so'mini yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,6 %ini tashkil etdi, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan amalda 30,1%ga yoki fizik hajm indeksi bo'yicha 7,9 %ga o'sishi kuzatildi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 2021-yilning yanvar-oktabr oyida 0,6 %ni (2020 yilning yanvar-oktabr oyida 0,4%), o'rta-yuqori texnologiyali -12,9 % (15%), o'rta-quyi texnologiyali - 26,1% (27,9) va quyi texnologiyalisi – 54,0 % (49,6%)ni tashkil etdi.






Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,7 % (2020-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajmi indeksi 101,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,8 % (2020-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 83,0 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 33,3 % (2020-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 124,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,8 % (2020-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab

chiqarishning ulushi –11,8 % (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,6 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmlari

2021-yilning yanvar-oktabr oylari davomida 2020-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan dizel yoqilg'isi 14,7 %ga, neft bitum 75,9%, klinkersement 19,2%, Paxta linti 95,3% ortgan.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


| Sanoat mahsulotlari | 2020-yil yanvar-oktabr | 2021-yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|------------------------|------------------------|-----------|
| Avtomobil benzini, ming t | 150,7 | 188,7 | 38 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t. | 233,7 | 214,4 | -19,3 |
| Paxta tolasi, ming t. | 28,8 | 45,8 | 18 |
| O'simlik yog'i (tozalangan), ming t. | 23,9 | 14,9 | -9 |

Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020-yil yanvar-oktabr | 2021-yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|----------------------------------|------------------------|------------------------|-----------|
| Portlandsement, ming t. | 1126,1 | 826,6 | -299,5 |
| Klinkersement, ming t. | 669,6 | 798,0 | 128,4 |
| Natriy nitrat ming. t | 4,2 | 4,4 | 0,2 |
| Dizel yoqilg'isi, ming t. | 277,5 | 318,4 | 40,9 |

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2021-yilning yanvar-oktabr oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1161,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,3%ini) tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 9,6 %ga oshgan.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020-yil yanvar-oktabr | 2021-yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|--|------------------------|------------------------|-----------|
| Elektroenergiya, mln.kVt/s | 216,1 | 334,4 | 118,3 |
| Gazsimon yoqilg'i issiqlik energiyasi, ming gkal | 1538,5 | 1371,2 | -167,3 |

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 129,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %ini) tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2020-yil yanvar-oktabr | 2021-yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|--|------------------------|------------------------|-----------|
| Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm | 17,3 | 13,6 | -3,7 |
| Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm | 14,6 | 13,8 | -0,8 |
| To'qimachilik chiqindilari, t. | 10438,9 | 11842,2 | 1403,3 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilari esa 13,4 %ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8084,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va uning jami sanoatdagi ulushi 37,2 %ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib, 16,1 %ni, shuningdek, Uchko'prik tumani 17,6 %ni, Farg'ona shahri 11,3 %ni, Marg'ilon shahri 8,3 %ni, Bag'dod tumani 7,8 %ni hamda Toshloq tumani 6,7 %ni, tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (109,9%) darajasidan yuqori ko'rsatkich, Oltiariq tumanida (200,2%), Furqat tumanida (179,7 %), Rishton tumanida (130,1 %), hamda Quvasoy (134,4 %) shahrida qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino, aroq mahsulotlari va pivoning ulushi (1,7) % (2020-yil yanvar-oktabr oylarida 2,0 %)ni tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021-yilning yanvar-oktabr oylarida**

| <i>Shahar va tumanlar</i> | <i>Hajmi mlrd. so'm</i> | <i>Ulushi %</i> | <i>O'sish sur'ati %</i> |
|---------------------------------|-----------------------------|-----------------|-----------------------------|
| <i>1 Oltiariq t.</i> | 137,7 | 1,7 | 200,2 |
| <i>2 Qo'shtepa t.</i> | 240,5 | 3,0 | 84,1 |
| <i>3 Bag'dod t.</i> | 634,0 | 7,8 | 110,8 |
| <i>4 Buvayda t.</i> | 328,0 | 4,1 | 119,4 |
| <i>5 Beshariq t.</i> | 188,9 | 2,3 | 73,8 |
| <i>6 Quva t.</i> | 242,3 | 3,0 | 117,7 |
| <i>7 Uchko'prik t.</i> | 1419,2 | 17,6 | 119,9 |
| <i>8 Rishton t.</i> | 177,0 | 2,2 | 130,1 |
| <i>9 So'x t.</i> | 67,2 | 0,8 | 109,0 |
| <i>10 Toshloq t.</i> | 545,4 | 6,7 | 96,8 |
| <i>11 O'zbekiston t.</i> | 223,7 | 2,8 | 106,6 |
| <i>12 Farg'ona t.</i> | 159,7 | 2,0 | 113,1 |
| <i>13 Dang'ara t.</i> | 327,7 | 4,1 | 102,4 |
| <i>14 Furqat t.</i> | 229,1 | 2,8 | 179,7 |
| <i>15 Yozyovon t.</i> | 118,5 | 1,5 | 113,3 |
| <i>16 Farg'ona sh.</i> | 912,7 | 11,3 | 103,7 |
| <i>17 Qo'qon sh.</i> | 1304,0 | 16,1 | 105,9 |
| <i>18 Quvasoy sh.</i> | 157,7 | 2,0 | 134,4 |
| <i>19 Marg'ilon sh.</i> | 670,7 | 8,3 | 108,8 |
| <i>Farg'ona viloyati</i> | 8084,1 | 100,0 | 109,9 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib 17,8 %ni Uchko'prik tumaniga 16,6 %ni, Farg'ona shahri 13,7 %ni hamda Marg'ilon shahri 8,1 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Oltiariq (356,3 %), Furqat (320,5 %), Buvayda (147,6 %), Rishton (145,8%), Quvasoy shahri (133,9), Uchko'prik (125,9 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021-yilning yanvar-oktabr oylarida**

| <i>Shahar va tumanlar</i> | <i>Hajmi mlrd. so'm</i> | <i>Ulushi %</i> | <i>O'sish sur'ati %</i> |
|---------------------------------|-----------------------------|-----------------|-----------------------------|
| 1 <i>Oltiariq t.</i> | 62,1 | 1,3 | 356,3 |
| 2 <i>Qo'shtepa t.</i> | 57,1 | 1,2 | 31,7 |
| 3 <i>Bag'dod t.</i> | 370,1 | 7,5 | 129,1 |
| 4 <i>Buvayda t.</i> | 208,7 | 4,2 | 147,6 |
| 5 <i>Beshariq t.</i> | 93,4 | 1,9 | 53,6 |
| 6 <i>Quva t.</i> | 85,7 | 1,7 | 99,2 |
| 7 <i>Uchko'prik t.</i> | 822,4 | 16,6 | 125,9 |
| 8 <i>Rishton t.</i> | 125,5 | 2,5 | 145,8 |
| 9 <i>So'x t.</i> | 25,9 | 0,5 | 156,9 |
| 10 <i>Toshloq t.</i> | 490,5 | 9,9 | 96,3 |
| 11 <i>O'zbekiston t.</i> | 132,1 | 2,7 | 101,0 |
| 12 <i>Farg'ona t.</i> | 40,1 | 0,8 | 63,3 |
| 13 <i>Dang'ara t.</i> | 227,5 | 4,6 | 106,0 |
| 14 <i>Furqat t.</i> | 117,4 | 2,4 | 320,5 |
| 15 <i>Yozyovon t.</i> | 52,6 | 1,1 | 83,0 |
| 16 <i>Farg'ona sh.</i> | 674,5 | 13,7 | 105,2 |
| 17 <i>Qo'qon sh.</i> | 878,8 | 17,8 | 120,9 |
| 18 <i>Quvasoy sh.</i> | 73,5 | 1,5 | 133,9 |
| 19 <i>Marg'ilon sh.</i> | 401,7 | 8,1 | 120,3 |
| <i>Farg'ona viloyati</i> | 4939,6 | 100 | 111,8 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko'prik tumaniga to'g'ri kelib, 19,0 %ni, shuningdek, Qo'qon shahrida 13,5 %ni, Bag'dod tumanida 8,4 %ni Marg'ilon shahrida esa 8,6 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Qo'shtepa tumanida (173,8 %), Farg'ona tumanida (153,5%), Oltiariq tumanida(147,2%), Quvasoy shahrida (134,8%) O'zbekiston tumanida (115,9%), Furqat tumanida (123,0 %) qayd etildi.


**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021-yilning yanvar-oktabr oylarida**

| <i>Shahar va tumanlar</i> | <i>Hajmi mlrd. so'm</i> | <i>Ulushi %</i> | <i>O'sish sur'ati %</i> | |
|---------------------------------|-----------------------------|-----------------|-----------------------------|--------------|
| 1 | <i>Oltiariq t.</i> | 75,6 | 2,4 | 147,2 |
| 2 | <i>Qo'shtepa t.</i> | 183,5 | 5,8 | 173,8 |
| 3 | <i>Bag'dod t.</i> | 263,9 | 8,4 | 92,4 |
| 4 | <i>Buvayda t.</i> | 119,3 | 3,8 | 89,4 |
| 5 | <i>Beshariq t.</i> | 95,5 | 3,0 | 117,0 |
| 6 | <i>Quva t.</i> | 156,6 | 5,0 | 131,0 |
| 7 | <i>Uchko'prik t.</i> | 596,8 | 19,0 | 112,5 |
| 8 | <i>Rishton t.</i> | 51,5 | 1,6 | 103,0 |
| 9 | <i>So'x t.</i> | 41,3 | 1,3 | 91,5 |
| 10 | <i>Toshloq t.</i> | 54,9 | 1,7 | 101,5 |
| 11 | <i>O'zbekiston t.</i> | 91,6 | 2,9 | 115,9 |
| 12 | <i>Farg'ona t.</i> | 119,6 | 3,8 | 153,5 |
| 13 | <i>Dang'ara t.</i> | 100,3 | 3,2 | 95,1 |
| 14 | <i>Furqat t.</i> | 111,7 | 3,6 | 123,0 |
| 15 | <i>Yozyovon t.</i> | 65,9 | 2,1 | 159,8 |
| 16 | <i>Farg'ona sh.</i> | 238,2 | 7,6 | 99,8 |
| 17 | <i>Qo'qon sh.</i> | 425,2 | 13,5 | 84,2 |
| 18 | <i>Quvasoy sh.</i> | 84,2 | 2,7 | 134,8 |
| 19 | <i>Marg'ilon sh.</i> | 269,0 | 8,6 | 95,3 |
| <i>Farg'ona viloyati</i> | | 3144,5 | 100 | 107,0 |


Farg'ona viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari.

| <i>Shahar va tumanlar</i> | | <i>Hajmi mlrd. so'm</i> | <i>Ulushi %</i> | <i>FHI %</i> |
|---------------------------|-----------------------|-------------------------|-----------------|--------------|
| 1 | <i>Oltiariq t.</i> | 320,3 | 1,5 | 118,5 |
| 2 | <i>Qo'shtepa t.</i> | 758,9 | 3,5 | 131,2 |
| 3 | <i>Bag'dod t.</i> | 760,3 | 3,5 | 108,5 |
| 4 | <i>Buvayda t.</i> | 530,9 | 2,4 | 112,3 |
| 5 | <i>Beshariq t.</i> | 558,1 | 2,6 | 111,8 |
| 6 | <i>Quva t.</i> | 481,5 | 2,2 | 108,7 |
| 7 | <i>Uchko'prik t.</i> | 1 922,3 | 8,8 | 112,8 |
| 8 | <i>Rishton t.</i> | 372,0 | 1,7 | 121,4 |
| 9 | <i>So'x t.</i> | 85,8 | 0,4 | 107,1 |
| 10 | <i>Toshloq t.</i> | 2 693,8 | 12,4 | 115,8 |
| 11 | <i>O'zbekiston t.</i> | 695,0 | 3,2 | 112,1 |
| 12 | <i>Farg'ona t.</i> | 537,4 | 2,5 | 140,8 |
| 13 | <i>Dang'ara t.</i> | 524,8 | 2,4 | 110,9 |
| 14 | <i>Furqat t.</i> | 264,0 | 1,2 | 144,3 |
| 15 | <i>Yozyovon t.</i> | 133,4 | 0,6 | 112,1 |
| 16 | <i>Farg'ona sh.</i> | 5 769,3 | 26,5 | 96,0 |
| 17 | <i>Qo'qon sh.</i> | 3 258,5 | 15,0 | 109,1 |
| 18 | <i>Quvasoy sh.</i> | 1 094,8 | 5,0 | 100,6 |
| 19 | <i>Marg'ilon sh.</i> | 973,4 | 4,5 | 108,8 |
| Farg'ona viloyati | | 21734,6 | 100 | 107,9 |

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining o'sishiga asosiy omil sifatida, Furqat (2020-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 144,3 %), Farg'ona (140,8 %), Qo'shtepa (131,2 %) Rishton (121,4 %), Oltiariq (118,5 %), Toshloq (115,8%) tumanlari hamda Qo'qon (109,1 %) shahri sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi bilan izohlashimiz mumkin.



Farg'ona viloyatida jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da



Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng yuqori ulush Farg'ona shahri (Farg'ona viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmining 26,5 %) hamda Qo'qon shahri (15,0 %), Toshloq tumani (12,4 %) Uchko'prik tumani (8,8 %), Quvasoy shahri (5,0 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa So'x (0,4 %), Yozyovon (0,6 %), Furqat (1,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg'ona (19513,0 ming so'm), Qo'qon (12638,3 ming so'm), Quvasoy (11435,6 ming so'm) shaharlarida va Toshloq (13018,8 ming so'm) tumanida yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2100,3 ming so'm bo'lgan holda, Uchko'prik tumani – 6070,5 ming so'mni, Qo'qon shahri – 5057,6 ming so'mni, Farg'ona shahri – 3087,1 ming so'mni, Bag'dod tumani – 2 874,5 ming so'mni, Toshloq tumani 2 635,9 ming so'mni, Furqat tumanida 1 905,7 ming so'mni, Dang'ara tumani – 1 840,0 ming so'mni tashkil etdi.


**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
2021-yilning yanvar-oktabr oylarida, ming so'm

| | | <i>Sanoat mahsulotlari</i> | <i>Iste'mol mahsulotlari</i> |
|----------------------------|-----------------------|----------------------------|------------------------------|
| 1 | <i>Oltiariq t.</i> | 1481,9 | 636,9 |
| 2 | <i>Qo'shtepa t.</i> | 3887,5 | 1232,1 |
| 3 | <i>Bag'dod t.</i> | 3446,9 | 2874,5 |
| 4 | <i>Buvayda t.</i> | 2278,9 | 1407,8 |
| 5 | <i>Beshariq t.</i> | 2404,7 | 813,9 |
| 6 | <i>Quva t.</i> | 1830,3 | 921,2 |
| 7 | <i>Uchko'prik t.</i> | 8222,3 | 6070,5 |
| 8 | <i>Rishton t.</i> | 1807,0 | 859,8 |
| 9 | <i>So'x t.</i> | 1077,6 | 843,0 |
| 10 | <i>Toshloq t.</i> | 13018,8 | 2635,9 |
| 11 | <i>O'zbekiston t.</i> | 2854,1 | 918,7 |
| 12 | <i>Farg'ona t.</i> | 2464,5 | 732,4 |
| 13 | <i>Dang'ara t.</i> | 2946,3 | 1840,0 |
| 14 | <i>Furqat t.</i> | 2195,7 | 1905,7 |
| 15 | <i>Yozyovon t.</i> | 1180,0 | 1047,7 |
| 16 | <i>Farg'ona sh.</i> | 19513,0 | 3087,1 |
| 17 | <i>Qo'qon sh.</i> | 12638,3 | 5057,6 |
| 18 | <i>Quvasoy sh.</i> | 11435,6 | 1647,1 |
| 19 | <i>Marg'ilon sh.</i> | 4048,0 | 2789,3 |
| Farg'ona viloyatida | | 5646,8 | 2100,3 |

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2021-yilning yanvar-oktabr oylarida, %da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 8 625,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,7%ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Beshariq (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), So'x (100,0 %), Furqat (100,0 %), va Yozyovon (100,0 %) tumanlarida hamda Marg'ilon shahri (100,0 %)da kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Farg'ona shahrida (19,0 %), Quvasoy shahrida (31,5 %), Qo'qon shahrida (38,7 %) hamda Tashloq tumanida (13,1 %), Farg'ona tumanida (32,7 %), Quva tumanida (33,4 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 10324 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1531 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 14,8 %) Qo'qon shahriga, 1165 tasi (11,3 %) Farg'ona shahriga, 1095 tasi (10,6 %) Marg'ilon shahriga, 689 tasi (6,7 %) Uchko'prik tumaniga, 605 tasi (5,9 %) O'zbekiston tumaniga, 600 tasi (5,8 %) Buvayda tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



2021-yilning yanvar-oktabr oyida viloyatda 1845 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 175 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 9,5 %) Qo'qon shahrida, 153 tasi (8,3%) Farg'ona shahrida, 127 tasi (6,9 %) Marg'ilon shahrida, 105 tasi (5,7 %) Uchko'prik tumanida, 128 tasi (6,9%) Dang'ara tumanida, 108 tasi (5,9 %) Rishton tumanida, 93 tasi (5,0 %) Oltiariq tumanida, hamda 111 tasi (6,0 %) O'zbekiston tumanida tashkil etildi.



Farg'ona viloyat statistika
boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Sh.Zokirov

Aloqa telefoni: 73 -249-87-19